

ZAMONAVIY KASBLAR BUGUNGI YOSHLAR NIGOHIDA

Tosheva Hamida Namozovna

*Navoiy viloyati Navoiy shahar 11-sonli AFCHO'IM da informatika va
axborot texnologiyalari fani yetakchi o'qituvchisi*

Annontatsiya: Hozirgi kunda texnika keng cho'qqilarga erishgan bir davrda, texnika bilan hamnafas bo'lish kelajak avlod vakillarining maqsadlaridan biri hisoblanadi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari o'quvchilarining informatika bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishlari, shu bilimlarga tayangan holda hozirgi xayotimizning ajralmas qismi, kompyuterdan bemalol foydalana olishlari davr talabidir. O'quvchilarning axborotli olam muammolari va Internet mavzusi bo'yicha nazariy va amaliy bilimga, zarur malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani alovida ahamiyat kasb etadi. Muvitxonov Ilyos Raxmidinovichning bitiruv ishi asosiy maqsadi dasturlash tillari va butun dunyoda keng foydalanilayotgan Paskal dasturlash tilini keng ko'lamda foydalanash va o'quvchi yoshlarni hozirgi kunda dasturlashni bilish kerakligi haqida fikr va mo'lihazalarini keltirib o'tgan.

Bugungi kunda internet tarmog'i orqali online o'qitish tizimlari rivojlanib bormoqda. Globallashuv, axborotlashtirish jadal borayotgan sharoitda, xalqaro maydonda o'zini oqlagan ta'lim modellarida ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan usullarni o'rghanish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha izlanishlarni amalga oshirish hozirgi kunda, ayniqsa, dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bitiruv ishida keltirilgan ma'lumotlar asosida pedagoglar *Paskal dasturlash tili* to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning bush vaqtini mazmunli va daromadli tashkil etish uchun ko'plab dastur va loyihalar amalga oshirilish davrida. Ammo yoshlarning internetdan samarali foydalanish

mobaynida ko'plab muammolargaduch kelmoqda. Ularni to'g'ri yo'nalitirish va jahonning dolzarb kasblarini egallahslariga zamin yaratish har birimizning burchimizga aylanishi zarur. So'ngi yillarda mamlakatimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirish asosiy dastur sifatida qabul qilingan. Bunga binoan talaba, o'quvchi va yoshlarni tez qulaykasblarni egallahslari ya'nikim frilanserlikni rivojlantirish va yosh frilanserlarni tarbiyalash nazarda tutilgan. Mana shunday loyihalardan biri bir milliono'zbek dasturchilari loyihasi qariyb 9 oy mobaynida minglab o'zbek yoshlarnijalbqila oldi. Ammo shuni ta'kidlashimiz lozim, bunday loyihalarga yoshlarning ma'lum bir qismi qiziqish bildirmoqda. Ko'pchilik yoshlarda qiziqish hali uyg'onganicha yo'q. Eng avvalo shuni ta'kidlash lozim frilanserlik bugungi kunda juda ko'plab mijozlarni o'ziga jalb qilmoqda. Aynan One Million Uzbek Coders (OMUC) loyihasini maktab o'quv dasturlariga kiritish ishlari ko'rib chiqilmoqda. Ushbu loyiha to'rt yo'nalish bo'yicha boshlang'ich kurs sanalib, asosan android, front end va back end kurslarni o'z ichiga oladi. Frilanserlik sohasi faqatgina bu yo'nalishlarni emas ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Dasturchi – ushbu soha vakillari o'z mutaxassisligi bo'yicha yana o'nlab yo'nalishlarga bo'linadi. Dasturchilik bugungi kunda eng qimmat kasblardan biri sanaladi. Shu sabab ham sohada raqobat juda kuchli. Dizayner – nafaqat inson husni va go'zalligi uchun dizaynerlar kerak bo'lsa, xuddi shunday kompyuter uchun ham dizaynerlik sohasi juda kerak. Asosan raqobatchi kompaniyalar o'z dasturiy vositalarini ommalashtirish uchun ushbu soha vakillariga murojaat qilishadi. Yana shuni ta'kidlash mumkin, bugungi kunda sohani o'rganish qulay bo'lganligi uchun ko'plab insonlar sohani o'z xobbisiga aylantirgan. Web dizayner – dizaynerlikni bir turi sanalib, faqat ushbu yo'nalishda talab yuqori bo'lganligi uchun alohida kasb sifatida ajralib chiqgan. Ushbu soha vakillari dizaynerlik bilan bir navbatda dasturlashni asosan web dasturlashni yaxshi bilishlariga to'g'ri keladi. Sababi yaratilgan dizayn dasturchiga qulaylik tug'dirishi lozim. Illustrator – ushbu yo'nalish egalari real hayot sur'atlarini grafiklashtirish bo'yicha shug'ullanadi. Asosan soha vakillari yagona kompaniya mahsuloti bo'lgan Adobe Illustrator

dasturidan foydalangani uchun ushbu nomga ega bo'lishgan. Algoritmni ifodalash uchun dasturlash tillari deb ataluvchi sun'iy tillar qo'llaniladi. Buning uchun ishlab chiqilgan algoritm shu tillar yordamida bir ma'noli va kompyuter tushuna oladigan ko'rinishda tavsiflanishi zarur. Uning tarkibida cheklangan sondagi sintaksis konstruksiyalar to'plami bor bo'lib, u bilan algoritm yaratuvchi tanish bo'lishi kerak. Ana shu konstruksiyalardan foydalanib, buyruq va ko'rsatmalar formal ifodalarga o'tkaziladi. Zamonaviy dasturlash tillari kompyutering ichki mashina tilidan keskin farq qiladi va kompyuter bevosita ana shu tilda ishlay olmaydi. Buning uchun dasturlash tilidan mashina tushunadigan tilga tarjima qiluvchi maxsus dastur - translatordan foydalaniladi. Dasturni translyatsiya qilish va bajarish jarayonlari vaqtлага ajraladi. Avval barcha dastur translyatsiya qilinib, so'ngra bajarish uslubida ishlaydigan translatorlar kompilyatorlar deb ataladi. Dastlabki tilning har bir operatorini o'zgartirish va bajarishni ketma-ket amalga oshiriladigan translatorlar interpretatorlar deb ataladi. Dasturlashning ixtiyoriy tili belgilar majmuini va algoritmlarni yozish uchun ushbu belgilarni qo'llash qoidalarini o'z ichiga oladi. Dasturlash tillari bir biridan alifbosi, sintaksisi va semantikasi bilan ajralib turadi.

Alifbo - tilda qo'llaniladigan ko'plab turli ramziy belgilar (harflar, raqamlar, maxsus belgilar) to'plamidir. Tilning sintaksisi jumlalar tuzishda belgilarning bog'lanish qoidalarini belgilaydi, semantikasi esa ushbu jumlalarning mazmuniy izohini belgilaydi. Hozirgi kunda dasturlash tillarini u yoki bu belgisi bo'yicha sinflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Fan darsliklar**
- 2. "ijtimoiy tarmoq"**